



## O'QITUVCHI FAOLIYATIDA PEDAGOGIK QOBILIYAT

**Yo'ldoshev Axrorjon**

Qo'qon universiteti "Raqamli texnologiyalar" kafedrasи o'qtuvchisi

**Yunusova Fazilat**

Qo'qon unversiteti talabasi

<https://doi.org/10.5281/zenodo.6569518>

**Annotatsiya:** Men bu maqolamda O'qituvchi qanday dars o'tishi kerak, va unda qanday qobiliyatlar bo'lishi kerakligi to'g'risida keltirdim.

**Kalit so'zlar;** Pedagogik qobiliyat, mahorat, ijodkJORlik, o'quvchilar, bilim, ko'nikma, shaxs, maxsus qobiliyatlar, umumiy qobiliyatlar.

**Annotation**

In this thesis, I talked about what a teacher should teach and what skills he should have.

**Keywords:** Pedagogical ability, skill, creativity, students, knowledge, skills, personality, special abilities, general abilities.

**Asosiy qism**

SHaxsnинг muayyan faoliyatini muvaffaqiyatli egallashi, shuningdek uni ijodiy ravishda amalga oshirishning shartlari xisoblangan xususiyatlariga qobiliyat deb ataladi. Har bir inson takrorlanmaydigan individ bo'lib, uni muayyan faoliyat turiga layoqatli qiluvchi komil kishining o'z xususiyatidir. Ishdagi muvaffaqiyat ko'p jixatdan uning qobiliyati bilan belgilanadi.

Demak, qobiliyat -- shaxsnинг muayyan faoliyat turini yuqori darajada bajarishga bo'lgan layoqat darajasini ifodalaydigan, turmush jarayonida xosil qilingan individual xususiyatlar yig'indisi xisoblanadi.


Masalan, qobiliyatli o'qituvchi bir xil ish sharoitlarida o'z hamkasblariga qaraganda yaxshiroq natijaga erishadi. Biz ko'pincha, falon o'qituvchining xali tajribasi kam, lekin u shubhasiz, qobiliyatli o'qituvchi, degan iboralarni eshitamiz. Bu o'sha o'qituvchining xali



kam tajribasi bo'lishiga qaramasdan o'qituvchilik ishini muvaffaqiyatli olib borishga yordam beradigan bir qancha pedagogik qobiliyatlarga ega ekanligidan darak beradi.

O'qituvchilik faoliyatida muvaffaqiyatli ishlash uchun har bir o'qituvchi -- pedagogik mahoratga ega bo'lishi zarur. Pedagogik mahorat egasi o'z mehnat sarf qilib, katta natijaga erishadi, o'z ishining natijasi bilan yangiliklar yaratadi. Ijodkorlik hamisha uning hamroxi bo'ladi. Pedagogik ishga qobiliyatli, iste'dodli kishigina loyiq bo'ladi va pedagogik mahoratga erishadi.

Qobiliyat faoliyat jarayonida paydo bo'ladi va rivojlanadi. Qobiliyat malaka va uddaburonlikdan farq qiladi. Malaka va uddaburonlik mashq va o'qish natijasi xisoblansa, qobiliyatni rivojlantirish uchun esa yana iste'dod va zexn, inson nerv sistemasida anatomiya va fiziologiyaga oid xususiyat taraqqiy etadi.



Kishi qobiliyati ikkita assosiy guruhga bo'linadi:

- 1.Maxsus qibiliyatlar.
- 2.Umumiy qibiliyatlar.

Pedagoglik faoliyatining samarali bo'lishi uchun o'qituvchida qobiliyatning quyidagi turlari mavjud bo'lmoq'i va uni rivojlantirilib borilmog'i lozim.

1.Bilish qobiliyati – fanning tegishli soxalariga oid (matematika, fizika, adabiyot va bashqalarga oid) qibiliyatlar. Bunday qobiliyatlarga ega o'qituvchi fanni o'quv kursi



xajmidagina emas, balki ancha keng va chuqurroq biladi. O'z fani soxasidagi kashfiyotlarni hamisha kuzatib boradi, unga nixoyatda qiziqadi, ayrim tadqiqot ishlarini ham bajaradi.

2.Tushuntira olish qobiliyati – o'quv materialini o'quvchilarga tushunarli qilib bayon eta olish, material yoki problemani aniq, tushunarli qilib gapirib berish, o'quvchilarda mustaqil ravishda aktiv fikrlashga qiziqish uyg'otish qobiliyati. O'qituvchi zarur hollarda o'quv materialini o'zgartira olishi, soddalashtira olishi, qiyin narsani oson, murakkab narsani oddiy, noanik narsani tushunarli qilib o'quvchilarga yetkaza olishi lozim. Qobiliyatli o'qituvchi o'quvchilarning bilim va kamolot darajasini xisobga oladi, ularning nimani bilishlari-yu, nimani bilmasliklarini, nimani unutib qo'yganliklarini tasavvur etadi. Ba'zi o'qituvchilarga, ayniqsa, tajribasi kam o'qituvchilarga o'quv materiali oddiy, tushunarli, aloxida izoxni talab etmaydigan tuyuladi. Qobiliyatli, tajribali o'qituvchi o'zini o'quvchi o'rniqa qo'yadi. U kattalarga aniq va tushunarli bo'lgan narsani o'quvchilarga tushunilishi qiyin bir narsa bo'lisi mumkinligiga ishonib, unga asoslanib ish tutadi.

3.Kuzatuvchanlik qobiliyati – o'quvchining, tarbiyalanuvchining ichki dunyosiga kira olish qobiliyati, o'quvchi shaxsini juda yaxshi tushuna olish, psixik qobiliyatlarni kuzata olish qobiliyati. Bunday o'qituvchi kichkinagina alomatlar, uncha katta bo'lмаган tashqi belgilar asosida, o'quvchining ruhiyatidagi ko'z ilgamas o'zgarishlarni ham faxmlab oladi.

1.Nutq qobiliyati – nutq yordamida, shuningdek, imo – ishora vositasida o'z fikr hamda xis – tuyg'ularini aniq va ravshan ifodalash qobiliyati. Bu o'qituvchilik qobiliyati uchun juda muxim.

2.Tashkilotchilik qobiliyati – birinchidan, o'quvchilar jamoasini uyushtirish, jipslashtirish, muxim vazifalarni xal etishda ruhlantirishni, ikkinchidan, o'z ishini to'g'ri uyushtirishni nazarda tutadi.

3.Obro' orttira olish qobiliyati – o'quvchilarga bevosita emotsional – irodaviy ta'sir ko'rsatish va shu asosda obro' qozona olishdir. Obro' faqat shu asosda emas, balki o'qituvchining fanni yaxshi bilishi, mehribonligi, nazokatliligi va bashqa asosida ham qozonadi.

4.Kelajakni ko'ra bilish qobiliyati – o'z harakatlarining oqibatini ko'ra bilish, o'quvchining kelajakda qanday odam bo'lismeni tasavvur qilishda. Bolani kelgusida qanday qobiliyatlarini



rivojlantirsa, qanday kasb egasi bo'lib chikishi oldindan bashorat qilib aytishda (pedagogik diagnostika).

O'qituvchi yuqorida sanab o'tilgan qobiliyatlardan tashqari bir qancha ijobiy sifatlarga, aniq maqsadni ko'zlash, qattiylik, mexnatsevarlik, kamtarlik kabilarga ega bo'lgandagina pedagogik kasbning yuqori pog'onasiga ko'tarila oladi.

### **Xulosa**

Xulosa qilib aytsak har bir kasb egasi o'z faoliyatida lider bo'lishi uchun o'z yo'nalishini chuqur o'rganishi kerak. Shunday ekan o'qituvchi ham o'zining kasbiy mahoratini oshirish uchun o'zini ustida ishlashi kerak. Bu esa o'qituvchining pedagogik qobiliyatini yanada oshirishda ko'makchi bo'ladi. Pedagogik qobiliyat o'qituvchining bilim darajasi qanchalik yuqori ekanligini va o'z bilimlarini o'quvchilarga tez va tushunarli qilib yetkazib berishda muhim rol o'yndaydi.

### **Foydalanilgan adabiyotlar va manbalar.**

1. Yoldashev, A. E. O., Nishonqulov, S. F. O., & Yoldasheva, M. R. Q. (2021). TA'LIMDAGI AXBOROT TEXNOLOGIYALARI. Scientific progress, 2(3), 806-813.
2. Inomxojayev, A. A. O., Yoldashev, A. E. O., & Nishonqulov, S. F. O. (2021). ZARARLI OBYEKTNING KOMPYUTERGA TA'SIRI UCHUN MATEMATIK MODEL IMMUNITET TIZIMI. Scientific progress, 2(2), 1662-1667.
3. Sulaymonov, J. B. O. G. L., Yuldashev, A. E. O. G. L., & Nishonqulov, S. F. O. G. L. (2021). Gidrologik modellashtirish bilan Geografik axborot tizimlari (GIS) integratsiya. Science and Education, 2(6), 239-246.
4. Butaboyev, M., Urinov, A., Mulaydinov, F., & Tojimatov, I. Digital economy.
5. Горовик, А. А., Мулайдинов, Ф. М., & Лазарева, М. В. (2018). Дистанционное образование как необходимое средство обучения в условиях современной экономики узбекистана. In Цифровой регион: опыт, компетенции, проекты (pp. 122-125).
6. Kokand, F. M., Kokand, R. T., & Kokand, D. M. (2020). Trends in solving problems in the development of an innovative economy. Journal of Advanced Research in Dynamical and Control Systems, 12(6), 1205-1209.
7. Мулайдинов, Ф. М. (2021). КИЧИК БИЗНЕС ВА ТАДБИРКОРЛИКДА КРАУДФАНДИНГ ИМКОНИЯТЛАРИ. Academic research in educational sciences, 2(Special Issue 4), 23-32.



8. TURSUN, S., TUYCHIEVICH, B. M., & MUROTOVICH, M. F. (2020). Effects of the Global Crisis on the Economy of Uzbekistan During the Coronavirus Pandemic and Measures to Ease It. *JournalNX*, 6(05), 277-280.
9. Mulaydinov, F. M. (2021). CROWDFUND OPPORTUNITIES IN SMALL BUSINESS AND ENTREPRENEURSHIP. *Academic research in educational sciences*, 2, 23-32.
10. Mulaydinov, F., & Nishonqulov, S. (2021). The role of information technologies in the development of the digital economy. *The role of information technologies in the development of the digital economy*.
11. Farkhod, M., Azadkhon, K., Gulkhon, M., & Oybek, A. (2020). Advantages of the transition to a digital economy in the innovative development of Uzbekistan. *Journal of Advanced Research in Dynamical and Control Systems*, 12(6), 1226-1232.
12. Mulaydinov, F., & Nishonqulov, S. (2021). Raqamli iqtisodiyotni rivojlantirishda axborot texnologiyalarining orni-The role of information technologies in the development of the digital economy.
13. Mulaydinov, F. M. (2019). Econometric Modelling of the Innovation Process in Uzbekistan. *Форум молодых ученых*, (3), 35-43.
14. Solidjonov, D. (2021). TA'LIMNING RIVOJLANISHI UCHUN DIGITAL LEARNING KONSPEKSIYASINING TENDENTSIYALARI. *Scienceweb academic papers collection*.
15. Solidjonov, D. (2021). E-LEARNING SYSTEM AND ITS GREAT DEVELOPMNET IN 2020. *Scienceweb academic papers collection*.
16. Solidjonov, D. (2021). APPLICATION OF INFORMATION TECHNOLOGIES AND ONLINE PLATFORMS IN THE EDUCATIONAL SYSTEM. *Scienceweb academic papers collection*.
17. Nusratovich, S. H. (2019). The role of the food industry in the national economy. *ACADEMICIA: An International Multidisciplinary Research Journal*, 9(10), 26-34.
18. Sabirov, K. N. (2021). Evaluation of the structural changes in production in the food industry. *ACADEMICIA: AN INTERNATIONAL MULTIDISCIPLINARY RESEARCH JOURNAL*, 11(1), 1727-1737.
19. Sabirov, K. N. (2019). Empirical analysis of the regional location of the food industry in Uzbekistan. *Economics and Innovative Technologies*, 2019(6), 12.
20. Nusratovich, S. K. (2022). Analysis of Dynamics of Development of Services in Uzbekistan. *Eurasian Scientific Herald*, 6, 6-12.
21. Nusratovich, S. K., & Muhammadyusuf, R. (2022). THE ROLE OF SMALL BUSINESS IN REDUCING POVERTY. *Eurasian Journal of Law, Finance and Applied Sciences*, 2(2), 269-273.